

## GULJAMOL ASQAROVA SHE'RIYATIDA ANTISEMIYA

Isoqulova Shahzoda

NavDU Tillar fakulteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19431687>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatining yorqin vakillaridan biri Guljamol Asqarova ijodida antisemiya hodisasining badiiy va nazariy talqini tahlil qilinadi.

Shoira poetik matnlarida qo'llangan ayrim leksemalarning kontekstda turli, ba'zan o'zaro zid semantik qirralarni namoyon etishi emotsional va uslubiy omillar bilan bog'liq holda yoritiladi. Antisemiyaning obrazlilikni kuchaytirish, lirik kechinmalarni teranlashtirish hamda poetik nutqning estetik ta'sirini oshirishdagi o'rni she'riy misollar asosida ko'rsatib beriladi.

Tadqiqot natijasida G. Asqarova she'riyatida antisemiya ruhiy iztiroblar, ichki ziddiyatlar va ijtimoiy-falsafiy qarashlarning badiiy ifoda vositasi sifatida faol qo'llanishi aniqlanadi.

**Kalit so'zlar:** antisemiya, antonimiya, ko'p ma'nolilik, kontekst, poetik nutq, badiiy semantika, lirik obra.

Leksik birliklarining ma'no jihatdan o'zaro qarama-qarshi munosabati tilshunoslikda leksik antonimiya sifatida o'rganiladi. Bunda leksik birliklar orasidagi mazmuniy zidlik, qarama-qarshilik asosiy o'rin tutadi. Yorug'-qorong'u so'zlarning antonimik munosabatiga kirishi yuqoridagi talablarga mos keladi. Lekin bu qarama-qarshi semalar yorug'-qorong'ulik, yorug' bo'lmoq-zulmat leksimalari orasida ham mavjud. Bu semalar antonimik qoidalardan chiqqan holda antisemiya (yunoncha anti – zid, sema – belgi) hodisasini yuzaga keltiradi.

Antisemiya hodisasi antonimga nisbatan kengroq qamrovga ega. D. Abdullayevaning ta'kidlashicha, leksik birliklar o'rtasidagi semantik qarama-qarshilik ularning barcha semalari emas, balki muayyan semalari asosida yuzaga keladi. Bunday qarama-qarshilik nafaqat bir turkumga mansub, balki turli turkumdagi birliklar munosabatida ham kuzatilishi mumkin [2, 5-b.].

Demak, semantik zidlikni faqat antonimiya bilan cheklab bo'lmaydi; uni antisemantik munosabatlar doirasida ham tadqiq etish zarur.

Leksik birliklar o'rtasidagi semantik qarama-qarshilikning yuzaga kelishida ularning semalari emas, muayyan semalari asos bo'ladi va bunday semalar qarama-qarshiligi-antisimiya nafaqat bir turkum, balki turli turkumdagi so'zlar munosabatida ham mavjud. Shunga ko'ra, leksik birliklarning semantik qarama - qarshiliklarni faqat antonimiya doirasida emas, balki undan tashqarida ham tekshirish maqsadga muvofiqdir.

Guljamol Asqarova poetik matnlarida semantik qarama-qarshilik, asosan, lirik qahramonning ruhiy holati, muhabbat talqini va ichki ziddiyatlari orqali namoyon bo'ladi. Shoira so'zga yangi kontekstual yuklama berish orqali uning ma'no ko'lamini kengaytiradi. Natijada bir so'zning ijobiy va salbiy, yaqinlik va begonalik kabi zid ma'nolarini ifodalash orqali antisemiya hodisasini yuzaga kelishini ko'rishimiz mumkin.

Har kim muhabbatga har yo'ldan borar,  
Kim arqondan borar, kim qildan borar,  
Ishqni o'yin bilgan yigit ko'rdimu,  
Ishq deb yig'lamagan qizni ko'rmadim. (G. Asqarova "Bevafo do'st" Uyg'otuvchi alla 61-bet)

Mazkur parchada "ishq" leksemasi turli subyektlarning ruhiy munosabati orqali qarama-qarshi semantik qirralarda namoyon bo'ladi.

“Ishqni o‘yin bilgan yigit” birikmasida ishq yengil, beqaror va mas’uliyatsiz munosabat sifatida talqin qilinsa, “Ishq deb yig‘lamagan qizni ko‘rmasdim” misrasida ayni leksema iztirob, sadoqat, ichki kechinma va ruhiy og‘riq ma’nolarini anglatadi. Demak, bir nominativ birlik turli kontekstual qurshovda zid emotsional-bahoviy semalarni yuzaga chiqaradi. Bu esa antisemiyaning poetik nutqdagi ifodasidir.

Shoira ijodida semantik qarama-qarshilik ayrim hollarda takrorlangan fe‘llar va ularning turli sintaktik vazifalari orqali ham kuchaytiriladi:

Nahot bizni ayirdi yillar

Ayirmadi o‘lim yo qadar ( G.Asqarova “Samarqand va Qo‘qon” Uyg‘otuvchi alla 60 bet.)

Ushbu misolda “ayirmoq” fe‘li bir xil shaklda qo‘llansa-da, turli semantik yuklama kasb etadi. Birinchi misrada “yillar” vositasida u real ajralish, masofa va uzoqlik ma’nosini ifodalaydi.

Ikkinchi misrada esa “o‘lim yo qadar ayirmadi” shakli orqali ajralmaslik, ma’naviy yaqinlik va ruhiy bog‘liqlik ma’nosi kuchayadi. Natijada birgina fe‘l tasdiq va inkor munosabati asosida semantik qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi.

Nima qilay yomon sevsam,

Yuz o‘girib yuzin ko‘rsam,

Mendan yuzin o‘girganni

Menga yuzin burgan dedim. (G.Asqarova “Rashk kasali” Uyg‘otuvchi alla 11-bet.)

Mazkur she’rda “yuz o‘girmoq” va “yuz burmoq” frazeologik birliklari qarama-qarshi semantik yo‘nalishda qo‘llangan. Odatda “yuz o‘girmoq” begonalashish, mensimaslik, chekinish ma’nolarini bildiradi. “Yuz burmoq” esa yaqinlashish, murojaat qilish, e’tibor qaratish mazmunini anglatadi. Shoira ayni qarama-qarshilikni lirik qahramon ruhiyatidagi xato talqin, rashk va iztirob bilan bog‘laydi: u o‘zidan yuz o‘girgan kimsaning harakatini ham o‘ziga yuz burgandek qabul qiladi. Bu yerda nafaqat ikki frazeologik birlikning zidligi, balki “yuz” leksemasining takroriy qo‘llanishi orqali hosil bo‘lgan semantik taranglik ham antisemiyaning kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, Guljamol Asqarova she’riyatida antisemiya hodisasi shoironing badiiy tafakkuri va poetik mahoratini namoyon etuvchi muhim semantik vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shoira lirik matnlarda bir-biriga zid bo‘lgan semantik belgilarni bitta obraz, leksema yoki konteks doirasida uyg‘unlashtirib, inson kechinmalarining murakkab va ko‘p qatlamli mohiyatini ochib beradi. Shoira tomonidan qo‘llangan antisemiya hodisasi oddiy semantik qarama-qarshilik bilangina cheklanmay, kontekstual va emotsional qatlamlar bilan boyitib, badiiy tasvirning ta’sirchanligini oshiradi.

Demak, Guljamol Asqarova ijodida antisemiya hodisasi poetik ma’no yaratish, obrazlar tizimini boyitish hamda lirik fikrning estetik kuchini oshirishda muhim uslubiy vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asqarova G. “Uyg‘otuvchi alla”.– Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2018-yil
2. Abdullayeva D. O‘zbek tilida antisemiya. Toshkent, 2010-yil